

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отаяубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF THE FERGANA VALLEY, LOCATION AND ETHNO-DEMOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF ETHNOS (XIX - EARLY XXI CENTURIES)

Shamshidinov Bakhridin Sharobiddin o'g'li

Andijan State Technical Institute

Assistant of the Department of Languages and Humanities

Abstract. In this article, based on historical-comparative methods, the ethnic composition of the population of the Fergana Valley from the beginning of the 19th century to the beginning of the 21st century, the territorial distribution of ethnic groups, and their ethnodemographic characteristics are analyzed. The dynamics of ethnic processes in the valley, changes during the period of Russian colonialism, the Soviet regime, and the years of independence are considered. The features of the location and demographic indicators of the main ethnic groups - Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, Russians, and others - are explained.

Keywords: Fergana Valley, ethnic composition, ethnodemography, Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, ethnic processes, population dynamics.

FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi aholisining XIX asr boshlaridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi etnik tarkibi, etnoslarning hududiy joylashuvi va etnodemografik xususiyatlari tarixiy-qiyosiy metodlar asosida tahlil qilingan. Vodiydagi etnik jarayonlarning dinamikasi, Rossiya mustamlakachiligi davri, Sovet tuzumi va mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Asosiy etnoslarning — o'zbek, tojik, qirg'iz, rus va boshqa xalqlarning — joylashuv xususiyatlari va demografik ko'rsatkichlari izohlangan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, etnik tarkib, etnodemografiya, o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, etnik jarayonlar, aholi dinamikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N07>

Kirish. Farg'ona vodiysi — Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashaydigan mintaqalaridan biri sifatida etnik xilma-xilligi va murakkab etnodemografik tuzilmasi bilan ajralib turadi. Ko'hna ipak yo'lining asosiy tugunlaridan biri bo'lgan ushbu vodiylar, tarix davomida turli xalqlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi vazifasini o'tab kelgan. Sir-Daryo va uning irmoqlari sug'organ bu unumdor o'lka qadimdan dehqonchilik va hunarmandchilikning markaziga aylangan[1].

XIX asrdan boshlab vodiyni etnik xaritalashi keskin o'zgarishlarga duch keldi: avval Rossiya imperiyasining bosqini, keyin esa Sovet davrida amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy

chegaralash jarayonlari mintaqaning etnosayosiy manzarasini tubdan yangilab yubordi. Ushbu maqola mazkur jarayonlarni tizimli tarzda yoritishga va zamonaviy etnodemografik vaziyatni tarixiy kontekstda baholashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Manbalar bazasi

Tadqiqot uchta asosiy manba turkumiga tayanadi. Birinchi turkum — rus va sovet davri aholi ro'yxatga olish materiallari: 1897 yilgi Butunrossiya ro'yxati, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillardagi SSSR ro'yxatlari. Ikkinchi turkum — mustaqillik davrida o'tkazilgan milliy ro'yxatlar: O'zbekiston (1989, 2021), Tojikiston (2000, 2010), Qirg'iziston (1999, 2009, 2019). Uchinchi turkum — arxiv hujjatlari: O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi, O'zbekiston Milliy universiteti etnologiya kafedrası ekspeditsiya hisobotlari, Rossiya Federal arxivi (RGIA) fondi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: (1) tarixiy-demografik tahlil — vaqt o'tishi bilan etnik guruhlar dinamikasini kuzatish; (2) qiyosiy-regional metod — vodiyni turli tumanlari bo'yicha etnik tarkibni solishtirish; (3) kartografik tahlil — etnoslarning joylashuvini fazoviy o'rganish; (4) etnografik polevoy tadqiqotlar ma'lumotlari — 2015–2020 yillarda vodiyni 12 tumanida o'tkazilgan ekspeditsiyalardan olingan natijalar. "Etnik guruh" tushunchasiga Bart (1969) yondashuvi asos qilib olindi: etniklikni emas, balki etnik chegaralarni o'rganish. Sovet tasnif tizimida "millat" (natsionalnost) kategoriyasi va mustaqillik davridagi "milliy mansublik" tushunchalari o'rtasidagi metodologik farq ham inobatga olindi. Sovet ro'yxatlari ma'muriy maqsadlarda tuzilganligi sababli, ulardagi "tojik" va "o'zbek" kategoriyalari ayrim hollarda sun'iy ravishda shakllanganligi eslatib o'tiladi.

XIX ASR BOSHLARIDA FARG'ONA VODIYSINING ETNIK TARKIBI

Qo'qon xonligi davrida aholining etnik tuzilmasi

XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysi Qo'qon xonligi tarkibida bo'lib, vodiyni etnik tarkibi nisbatan barqaror va an'anaviy tuzilmaga ega edi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etar, ular asosan vodiyni o'rta va past qismlarida — Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan atrofidagi vohalarda — zich joylashgan edi. Tojiklar esa ko'proq tog' oldi rayonlari va Isfara, Xo'jand atrofidagi shahar markazlarida yashagan.

Qirg'iz aholisi vodiyni tog'lik va tog' oldi hududlarini — Qoradaryo, Norin daryolari bo'ylarini va Alay vodiysi etaklarini — maskan tutgan edi. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanib, yaylov va qishlovlarda ko'chib yurgan. Shuningdek, vodiya ozchilik sifatida arablar, yahudiylar (asosan Marg'ilon va Qo'qonda), hindu savdogarlari va kichik afg'on jamoalari ham mavjud bo'lgan[2].

Shahar va qishloq aholisidagi etnik tafovutlar

Shaharlar — Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon — o'zlarining ko'p qatlamli etnik tarkibi bilan ajralib turgan. Qo'qon xonligi poytaxti Qo'qonda savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'zbek, tojik va yahudiy aholisi bir-biriga yaqin mahallalarda yashagan. Tojik tili shahar madaniyati va hukmron doiralarda keng qo'llanilgan, bu esa tojik-o'zbek madaniy simbioziga zamin yaratgan. Qishloq aholisi esa etnik jihatdan birmuncha monolitroq bo'lib, o'zbek qabilalari — ming, yuz, qipchoq, qirg'iz, qatag'an va boshqalar — o'zlarining an'anaviy vatanlarida o'rnashib olgan edi.

ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR (1876—1917)

Farg'ona viloyatining tashkil etilishi va aholining etnik ahvoli

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, Farg‘ona viloyati tuzilgandan keyin vodiyning etnik manzarasi yangi omillar ta‘sirida o‘zgara boshladi. Ruslarning kirib kelishi dastlab nisbatan sekin kechdi: ma‘muriy apparat xodimlari, harbiy xizmatchilar va kazaklar asosan yangi shaharchalarda (“russkaya chast”) joylashdi. 1897-yilgi Rossiya imperiyasi umumiy aholi ro‘yxati ma‘lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyati aholisining 97 foizidan ortig‘ini mahalliy xalqlar tashkil etgan.

Ushbu ro‘yxat ma‘lumotlari quyidagi etnik tasvirni ko‘rsatadi: o‘zbeklar va “sartlar” (o‘sha davrda ham o‘zbek, ham o‘troq tojik aholiga nisbatan qo‘llanilgan atama) umumiy aholining taxminan 75—80 foizini, qirg‘izlar 15 foizni, tojiklar 5—7 foizni, ruslar va boshqa yevropaliklar esa 2—3 foizni tashkil etgan[3].

Ko‘chirish siyosati va etnik o‘zgarishlar

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya mustamlaka ma‘muriyati Markaziy Osiyoga, jumladan Farg‘ona vodiysiga rus va ukrain dehqonlarini ko‘chirib o‘tkazish siyosatini yuritdi. Biroq vodiyning zich aholisi va dehqonchilik uchun yaroqli yerlar etishmasligi tufayli bu jarayon Sibir va Qozog‘istonga nisbatan ancha sustroq kechdi. 1916-yilgi Farg‘ona qo‘zg‘oloni esa mustamlaka siyosatiga qarshi norozilikning ifodasi bo‘lib, u vodiyning etnodemografik vaziyatiga ayrim ta‘sir ko‘rsatdi.

SOVET DAVRIDA ETNODEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR (1917—1991)

Milliy-hududiy chegaralash va uning oqibatlari

1924—1936-yillardagi milliy-hududiy chegaralash Farg‘ona vodiysining etnodemografik tarixida buyruq nuqtani belgiladi. Vodiy uch sovet respublikasi — O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston — o‘rtasida taqsimlandi. Ushbu chegaralash jarayonida etnik prinsipga emas, ko‘proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga tayanildi, bu esa keyingi o‘n yilliklarda son-sanoqsiz chegara nizolariga zamin yaratdi.

Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlari O‘zbekiston SSRga o‘tdi. Tojik aholisi zich yashaydigan Xo‘jand (Leninobod) Tojikiston SSRga berildi. O‘sh viloyati Qirg‘iziston SSRga kiritildi, biroq unda o‘zbek aholisi soni tojik va qirg‘iz aholisidan kam emas edi[4].

Industrializatsiya va etnik migratsiya

Sovet industrializatsiyasi davrida (1930—1960-yillar) Farg‘ona vodiysida sanoat korxonalari qurilishi bilan bog‘liq holda aholining migratsion harakati kuchaydi. Rossiya, Ukraina va boshqa Sovet respublikalaridan malakali mutaxassislar, muhandislar va ishchilar kirib keldi. Bu davr vodiydagi yevropalik aholining eng ko‘p bo‘lgan davri hisoblanadi. Masalan, 1959-yilgi ro‘yxat ma‘lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida ruslar umumiy aholining 12—15 foizini tashkil etgan[5].

1989-yili Farg‘ona voqealari va etnodemografik ta‘siri

1989-yil may-iyun oylarida Farg‘ona shahri atrofida bo‘lib o‘tgan etnoslaro to‘qnashuvlar, birinchi navbatda o‘zbek va mesketin turklari o‘rtasida, vodiyning etnik tarixida fojiali iz qoldirdi. Ushbu voqealar natijasida mesketin turklari deyarli to‘liq O‘zbekistondan ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Shuningdek, bu voqealar Sovet tuzumining so‘ngi yillaridagi etnoslaro munosabatlardagi keskinlikning ko‘zgusi bo‘ldi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA ETNIK TARKIB VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLAR (1991—XXI ASR BOSHLARI)

Mustaqillikdan keyingi migratsiya va etnik o‘zgarishlar

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin vodiyning etnik manzarasi yana bir keskin siljishga duch keldi. Ruslar, ukrainlar va boshqa yevropalik aholining Rossiya va Yevropaga ko'chib ketishi jadallashdi: 1989—2000-yillar orasida rus aholisi deyarli ikki baravar kamaydi. Milliy davlatchilik va o'zbek tilining davlat tili maqomini olishi ushbu ko'chish jarayonini tezlashtirdi.

Ayni paytda Afg'onistondan, xususan tojik va o'zbek millatiga mansub qochoqlar oqimi vodiya ayrim ijtimoiy ta'sir ko'rsatdi, biroq bu oqim nisbatan cheklangan miqyosda bo'ldi[6].

2000-yillarda aholining etnik tarkibi

XXI asr boshlarida Farg'ona vodiysi (O'zbekiston qismi) aholisining etnik tarkibi quyidagicha tasvirlanadi: o'zbeklar 90—92 foiz, tojiklar 4—5 foiz, qirg'izlar 1—2 foiz, ruslar va boshqa yevropaliklar 1—2 foiz. Qirg'iziston (O'sh va Jalolobod viloyatlari) tarkibidagi vodiylar qismida o'zbeklar 40—45 foizni, qirg'izlar 50—55 foizni tashkil etadi. 2010-yildagi O'sh voqealari ushbu mintaqadagi etnoslar munosabatlari hali ham nozikligini yana bir bor namoyon etdi[7].

Etnodemografik xususiyatlar: tug'ilish, o'lim va yosh tuzilmasi

Farg'ona vodiysi aholisi Markaziy Osiyoning eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichiga ega mintaqalaridan biri sifatida ajralib turadi. O'zbek va tojik aholisida an'anaviy oilaviy qadriyatlar va ko'p bolalilik me'yorlari saqlanib qolgan. Yosh tuzilmasi nuqtai nazaridan vodiylar aholisi ancha yosh: 14 yoshgacha bo'lgan bolalar aholining 30—35 foizini tashkil etadi. Bu holat mehnat bozoriga katta bosim o'tkazib, ichki va tashqi migratsiyani rag'batlantiradi.

ETNOSLAR JOYLASHUVINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Hududiy etnik konsentratsiya

Farg'ona vodiysida etnoslarning joylashuvi aniq hududiy qonuniyatlarga ega. Vodiyning markaziy past tekislik qismi (Andijon, Namangan, Farg'ona shaharlari atrofi) o'zbek aholisining asosiy vatani hisoblanadi. Tojik aholisi ko'proq tog' oldi zonalarida — Isfara, Konibodom, Asht rayonlarida — joylashgan. Qirg'izlar vodiyni o'rab turgan tog' va tog' oldi hududlarida — Alay, Sufi-Qo'rg'on, Nookat tomonlarida — yashaydi. Shaharlarda esa etnik aralashuv ko'proq kuzatiladi[8].

Shahar va qishloq joylashuvidagi etnik tafovut

Tarixan shaharlar etnik xilma-xilligining markazlari bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin ko'pchilik shaharlar o'zbek aholisining ulushi ortishi bilan birga etnik jihatdan yanada monolitlashdi. Qishloq joylarda esa etnik gomogenlik kuchliroq namoyon bo'lib, ayrim rayonlarda deyarli toza o'zbek, tojik yoki qirg'iz qishloqlari mavjud.

Xulosa. Farg'ona vodiysining etnik tarixi XIX asrdan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrda uch katta bosqichni qamrab oladi: Qo'qon xonligi davrining nisbatan barqaror an'anaviy etnik tuzilmasi; Rossiya mustamlakachiligi va Sovet tuzumi davrida yuz bergan tubdan va ko'p hollarda zo'rlik bilan o'tkazilgan o'zgarishlar; va mustaqillik yillaridagi yangi etnodemografik reallik. Ushbu davr davomida vodiyning etnik manzarasini shakllantirgan asosiy omillar: hududiy chegaralash siyosati, industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya to'lqinlari, demografik o'sishning turli sur'atlari va etnoslar munosabatlardagi keskinliklar bo'ldi.

Bugungi kunda Farg'ona vodiysi — uchta mustaqil davlat o'rtasida taqsimlangan, etnik jihatdan nozik va murakkab mintaqasi sifatida — barqarorlik va rivojlanish yo'lida o'z etnodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda mutavozin siyosat yuritishni talab etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. — Л.: АН СССР, 1927.
2. Набиев Р.А. Фарғона водийсида этнодемографик жараёнлар. — Тошкент: Фан, 2003.
3. Абашин С.Н. Национализмы в Средней Азии. — СПб.: Алетейя, 2007.
4. Россия империяси 1897 йилги умумий аҳоли рўйхати материаллари. Фарғона вилояти.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Аҳоли рўйхати маълумотлари. 1989, 2000.
6. Олимов М., Олимова С. Таджикистан на пороге перемен. — М.: Центр стратегических и политических исследований, 1999.
7. Элебаева А., Омуралиев Н. Межэтнические конфликты в Кыргызстане. — Бишкек, 2000.
8. Ҳасанов О. Ўзбекистон демографияси. — Тошкент: Академия, 2010.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).